

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 490-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash, Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda mahalla taraqqiyotining o‘rni va rolini tadqiq etish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning nazariyasi, tajribalari, dolzarb muammolari va istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish, iqtidorli yosh olimlarni inson resurslaridan samarali foydalanish hamda istiqbolli ilmiy yo‘nalishlariga jalb qilish, tegishli sohalar olim va mutaxassislarining keng ishtirokini ta’minlash maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2025-yil 24–25-oktabr kunlari **“Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda mahalla taraqqiyotining o‘rni va roli”** mavzusida respublika ilmiy-texnik anjuman **HISOBOTI**

1. Anjuman mavzusi:

“Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda mahalla taraqqiyotining o‘rni va roli”

“Место и роль развития махаллей в достижении социально-экономической стабильности”

“The place and role of mahalla development in achieving socio-economic stability”

2. Anjuman maqomi: Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman

3. Ilmiy va ilmiy-texnika anjumanni o‘tkazish uchun asos bo‘lgan O‘zR Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qator buyruq va ko‘rsatmalari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2024-yil 18-maydagi “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 292-sonli qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 490-son buyrug‘i asos qilib olindi.

4. Anjumanning ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalari: Anjumanning ilmiy yo‘nalishi quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari;
- mahalliy boshqaruvning qo‘yi organi sifatida mahalla tizimi rivojlanishining maqsadlari va vazifalari, asosiy yo‘nalishlari;
- aholi faravonligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Maqsadi: Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida mahallalarda aholining iqtisodiy faolligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligi darajasini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning innovatsion usullarini

joriy etish, mahalla tizimini boshqarish samaradorligini oshirish, shuningdek mahalla tizimining rivojlanishi bo'yicha yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish natijalarini respublikamiz amaliyotida foydalanish asosiy maqsad qilib belgilangan..

Vazifalari: Mahalla tizimining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq etish va ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni amliyotga tadbqiq etish, olingan natijalarni o'quv jarayoniga uzviy bog'liqligini qaror toptirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Muhokama qilinadigan muammolar. Respublika mahalla tizimida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ishsizlikni kamaytirish va aholi bandligi darajasini oshirish, mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning innovatsion usullarini joriy etish, o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida mahalla tizimi rivojlanishining xorij tajribasi o'rganish muammolari muhokama qilinadi va o'zaro fikr almashiniladi.

6. O'tkaziladigan anjumaning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi: Anjuman respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Davlat ilmiy-nazariy dasturlarini amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.

Mahalla tizimini rivoltantirish dasturlar doirasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari muhokama qilinadi. Respublikada mahalla tizimida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tadqiq etiladi. Tadqiqotning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi bo'yicha olingan natijalar mamlakatimiz mahallalarda foydalanish uchun tavsiya etiladi

8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi: Anjumanda iqtisodiyoti fan sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va iqtidorli talabalar olib borayotgan tadqiqotlarining natijalari, amaliyotga tadbqiq etilayotgan ishlanmalari, ilg'or innovatsion g'oyalarini o'zida ifoda etgan ma'ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi (ularning umumiy soni 74 ta).

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki: Anjuman ishida respublikamizda faoliyat yuritayotgan qator soha korxona va tashkilotlarining ishtiroki ta'minlandi, jumladan O'zbekiston Mahallalar uyushmasi Samarqand viloyati boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi Samarqand viloyati filiali hamda soha oliy o'quv yurtlaridan soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

2025-yil 24-oktabr soat 9:00 da anjumanning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Respublika ilmiy-nazariy anjumanning yalpi majlis kirish so‘zida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti prorektori A.Axatov nutq so‘zladi.

Anjumanning yalpi majlisida dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan 9 ta ma‘ruzlar tinglandi. Shular jumlasidan O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi Samarqand viloyati boshqarmasi rahbari, PhD I.I.Jabborov “Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalla institutining tutgan o‘rni”, Qaraqalpoq davlat universiteti, DSc, professori G.Utemuradova “Yashil” iqtisodiyot sharoitida hududiy rivojlanish istiqbollari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida), Yeungnam Universiteti, PhD, professori Rieznik Stanislav “Сокращение бедности путём развития системы махалли: опыт Южной Кореи”, O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali direktori Sh.A.Xolbayev “Mahalla yettiligi a‘zolarini professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan yondashuv asosida qo‘yi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi Samarqand viloyati filiali bosh inspektori R.S.Umarova “Mahalladagi davlat xizmatchilarining malakasini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari”, Bombay Texnologiyalar universiteti professori Praveen Bhasa Malla “From Community Networks to Economic Stability: The Role of Neighborhood Development in Rural India” mavzularida va bir qator respublika olimlari o‘zlarining ma‘ruzalari bilan ishtirok etdi.

Anjumanning ikkinchi qismi 25-oktabr kuni “Mahalla tizimining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati”, “Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari”, “Mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi (xotin-qizlar va yoshlar)ni ish bilan bandligi darajasini oshirish yo‘llari”, “Raqamli texnologiyalarni mahalla boshqaruv faoliyatida qo‘llash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash”, “Mahallalarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish”, “Mahallalarda yashil turizm va yashil iqtisodiyot orqali barqaror ish o‘rinlari yaratish” kabi sho‘balarda davom etdi.

Ushbu respublika anjumanda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda mahalla taraqqiyotining o‘rni va rolining nazariyasi, tajribalari, dolzarb muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari muhokama qilindi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

**“Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda mahalla taraqqiyotining o‘rni va roli”
nomli respublika ilmiy-texnik anjuman fotolavhalari**

